

**TABIIY MONOPOLIYA SUBYEKTLARI TOVARLARINING
NARXLARINI (TARIFLARINI) TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY
ASOSLARI VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

Raximova Maftuna Yuldashboy qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Huquqiy tashabbuslar va innovatsiyalar markazi Legal-Tech
laboratoriyasi Bosh mutaxassis – koordinatori

Elektron pochta manzili: rakhimova_maftuna24031997@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur tezisda tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan ko'rsatiladigan tovarlar, ishlar va xizmatlar narxlarini (tariflarini) davlat tomonidan tartibga solishning huquqiy va iqtisodiy asoslari tahlil qilinadi. Tabiiy monopoliya sharoitida raqobat mexanizmlarining cheklanganligi sababli davlat tomonidan tariflarni tartibga solishning zarurati, uning asosiy maqsad va tamoyillari yoritiladi. O'zbekiston Respublikasida tabiiy monopoliyalar faoliyatini tartibga solishning amaldagi mexanizmlari, tartibga solinadigan narxlarni shakllantirish tartibi hamda huquqni qo'llash amaliyotidagi muammolar o'rganiladi. Xorijiy davlatlarda qo'llaniladigan xarajatlarni qoplash, daromadlilikni tartibga solish, narx chegarasini belgilash va rag'batlantiruvchi tartibga solish modellari tahlil qilinadi. Shuningdek, tariflarni belgilashda iste'molchilar manfaatlari, xizmat sifati, investitsiya majburiyatlari va tabiiy monopoliya subyektlarining iqtisodiy samaradorligini kompleks hisobga olish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Аннотация: В настоящих тезисах анализируются правовые и экономические основы государственного регулирования цен (тарифов) на товары, работы и услуги, предоставляемые субъектами естественных монополий. Рассматриваются необходимость государственного регулирования тарифов в условиях ограниченности конкурентных механизмов, а также его основные цели и принципы. Исследуются действующие механизмы регулирования деятельности субъектов естественных монополий в Республике Узбекистан, порядок формирования

регулируемых цен, а также проблемы правоприменительной практики. Анализируются применяемые в зарубежных странах модели регулирования, основанные на возмещении затрат, регулировании доходности, установлении предельного уровня цен и стимулирующем регулировании. Кроме того, разрабатываются предложения по комплексному учету интересов потребителей, качества услуг, инвестиционных обязательств и экономической эффективности субъектов естественных монополий при установлении тарифов.

Abstract: This thesis analyzes the legal and economic foundations of state regulation of prices (tariffs) for goods, works, and services provided by natural monopoly entities. It examines the necessity of state tariff regulation under conditions of limited competition mechanisms, as well as its main objectives and principles. The study explores the existing mechanisms for regulating the activities of natural monopoly entities in the Republic of Uzbekistan, the procedure for establishing regulated prices, and the key challenges arising in law enforcement practice. The article also analyzes foreign regulatory models based on cost recovery, rate-of-return regulation, price-cap regulation, and incentive regulation. Furthermore, it develops proposals for ensuring a comprehensive consideration of consumer interests, service quality, investment obligations, and the economic efficiency of natural monopoly entities when establishing tariffs.

Kalit so'zlar / Ключевые слова / Keywords: tabiiy monopoliya, tarif, narx, davlat tomonidan tartibga solish, raqobat, iste'molchi, monopol mavqe, narx chegarasi, rag'batlantiruvchi tartibga solish, tarif siyosati.

KIRISH. Bozor iqtisodiyotida narxlarning erkin shakllanishi raqobat mexanizmining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Raqobat mavjud bo'lgan bozorda xo'jalik yurituvchi subyektlar iste'molchilarni jalb etish maqsadida narx, sifat va xizmat ko'rsatish shartlari bo'yicha o'zaro raqobatlashadi. Biroq ayrim iqtisodiy faoliyat turlarida infratuzilmaning yuqori qiymati, katta miqdordagi boshlang'ich investitsiyalar, tarmoq samarasi va ishlab chiqarish hajmi oshishi bilan o'rtacha xarajatlarning kamayishi natijasida bir subyektning bozorda faoliyat yuritishi bir nechta subyektlarning parallel faoliyat yuritishiga nisbatan iqtisodiy

jihtadan samaraliroq bo'lishi mumkin. Bunday bozorlar tabiiy monopoliya xususiyatiga ega bo'ladi¹.

Tabiiy monopoliya sharoitida bozorning o'z-o'zini tartibga solish imkoniyatlari cheklanganligi sababli monopol subyektning narx belgilashdagi iqtisodiy kuchi ortadi. Natijada monopol subyekt tomonidan iqtisodiy jihatdan asossiz yuqori tariflarni belgilash, xizmat hajmi yoki sifatini pasaytirish, ayrim iste'molchilarni kamsitish kabi holatlar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli tabiiy monopoliyalar faoliyatida davlat tomonidan narx va tariflarni tartibga solish raqobatni cheklash emas, balki **raqobat mavjud bo'lishi qiyin bo'lgan bozorda iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash vositasi** sifatida namoyon bo'ladi. Paul Joskow tabiiy monopoliyalarni tartibga solish masalasini tadqiq etar ekan, bunday tartibga solishning asosiy muammolari qatoriga tariflarni belgilash, tartibga solish institutlarini shakllantirish, axborotning to'liq emasligi va monopol subyektning samaradorligini rag'batlantirish masalalarini kiritadi². Demak, davlatning vazifasi faqat monopol subyektning foydasini cheklash emas, balki tariflar orqali **iste'molchi farovonligi va infratuzilmaning barqaror rivojlanishi o'rtasida muvozanatni ta'minlashdan** iborat.

Tabiiy monopoliyaning asosiy iqtisodiy xususiyati shundaki, tegishli tovar yoki xizmatni yagona yirik subyekt tomonidan ishlab chiqarish yoki ko'rsatish bir nechta subyektlarning parallel faoliyatidan kamroq xarajat talab qilishi mumkin. Ayniqsa, elektr energiyasini uzatish, gaz transporti, suv ta'minoti, temir yo'l infratuzilmasi kabi sohalarda parallel infratuzilmalarni yaratish iqtisodiy jihatdan samarasiz yoki haddan tashqari qimmat bo'lishi mumkin³.

¹ OECD. *Natural Monopoly and Entry*. OECD Competition Policy Roundtable, natural monopoly and economies of scale masalalariga bag'ishlangan materialar.

² Joskow P.L. Regulation of Natural Monopoly // *Handbook of Law and Economics*. Vol. 2. 2007. P. 1227–1348.

³ OECD. *Competition and Regulation in the Water Sector*. OECD Journal of Competition Law and Policy. Tabiiy monopoliyalarda xarajatlar, tariflar va samaradorlikni tartibga solish masalalari.

Shu sababli bunday bozorlarda raqobatni sun'iy ravishda yaratish o'rniga monopol subyektning iqtisodiy xatti-harakatlarini davlat tomonidan tartibga solish modeli qo'llanadi.

Agar tarif faqat monopol subyektning barcha xarajatlarini qoplash va ma'lum foyda olish imkonini beradigan tarzda shakllantirilsa, subyektning xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishga bo'lgan rag'batini pasayishi mumkin. OECD tomonidan ham xarajatlarga asoslangan tartibga solishning asosiy muammolaridan biri sifatida aynan samaradorlikka rag'batning zaifligi ko'rsatiladi⁴.

Shu bois zamonaviy yondashuvda tarifni shakllantirishda quyidagi manfaatlar muvozanatlashishi lozim:

- monopol subyektning asoslangan xarajatlarini qoplash;
- maqbul daromadlilikni ta'minlash;
- investitsiyalarni rag'batlantirish;
- xizmat sifatini oshirish;
- iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash;
- iste'molchilar uchun maqbul tariflarni saqlash.

O'zbekistonda tabiiy monopoliyalar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning huquqiy mexanizmi tabiiy monopoliyalar va raqobat to'g'risidagi qonunchilik asosida shakllangan. Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi tizimida tabiiy monopoliyalarni tartibga solish bo'limi faoliyat yuritib, uning vazifalaridan biri tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan ko'rsatiladigan tovarlar va xizmatlar narxlarini (tariflarini) nazorat qilish, asossiz narx oshirishlarning oldini olish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishdan iborat⁵. Mazkur yo'nalishda muhim huquqiy yangiliklardan biri

⁴ O'sha manba. OECD materialida cost-of-service regulation modelida xarajatlarni kamaytirishga rag'batning zaifligi qayd etilgan.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi. Tabiiy monopoliyalarni tartibga solish bo'limi.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 722-son qarori bilan bog'liq. Ushbu qaror bilan davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlarni shakllantirish, deklaratsiya qilish, tasdiqlash va belgilash, shuningdek, ularning qo'llanilishini nazorat qilish tartibi takomillashtirilgan⁶. Mazkur tartibga ko'ra, ustun mavqega ega xo'jalik yurituvchi subyektlar va tabiiy monopoliya subyektlarining tovarlari, ishlari va xizmatlari narxlari (tariflari) shakllantirilishida ishlab chiqarish va davriy xarajatlar, soliqlar va boshqa to'lovlar bo'yicha xarajatlar hamda sof foyda summasi hisobga olinadi⁷.

Bu yondashuv tabiiy monopoliya tariflarini iqtisodiy jihatdan asoslashga qaratilgan bo'lsa-da, zamonaviy raqobat huquqi nuqtayi nazaridan masalani yanada kengroq ko'rib chiqish zarur. Tabiiy monopoliya tariflarini tartibga solishning amaliy ahamiyati Raqobat qo'mitasi tomonidan olib borilayotgan nazorat natijalarida ham ko'rinadi. Qo'mita ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda "Raqobat to'g'risida"gi va "Tabiiy monopoliyalar to'g'risida"gi qonunchilik talablariga rioya etilishi yuzasidan o'tkazilgan o'rganishlar natijasida iste'molchilardan **113,4 mlrd so'mdan ortiq asossiz daromadlar** olingani aniqlangan⁸. Mazkur ko'rsatkich tabiiy monopoliyalar sohasida tarif va to'lovlarni nazorat qilish faqat nazariy masala emasligini, balki iste'molchilarning real iqtisodiy manfaatlariga bevosita ta'sir qiluvchi huquqiy mexanizm ekanligini ko'rsatadi. Amaliyotdan yana bir misol sifatida "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ faoliyatini keltirish mumkin. Qo'mita ma'lumotlariga ko'ra, ayrim tadbirkorlik subyektlariga elektr energiyasi yetkazib berishda belgilangan miqdordan ortiq haq undirilishi natijasida jami **2,7 mlrd so'm asossiz mablag'** undirilgani aniqlanib, ushbu mablag'larning korxonalarga qaytarilishi ta'minlangan⁹. Mazkur holat tariflarni davlat tomonidan

⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 722-son qarori "Narxlari davlat tomonidan tartibga solinishi lozim bo'lgan tovarlar narxlarining (tariflarining) shakllanishi hamda qo'llanilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".

⁷ O'sha manba. Narx (tarif) ishlab chiqarish va davriy xarajatlar, soliqlar va boshqa to'lovlar bo'yicha xarajatlar hamda sof foyda summasi asosida shakllantirilishi belgilangan.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi. "Tartibga solinadigan narx (tarif)lar va tovar (ish, xizmat)larni bahosini tahlil va nazorat qilish".

⁹ O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi. "Narxlar va tariflarni nazorat qilish hamda tabiiy monopoliyalarni tartibga solish sohasida amalga oshirilgan ishlar".

tartibga solishning yana bir muhim jihatini ko'rsatadi. Ya'ni, tarifni belgilashning o'zi yetarli emas, uning amalda to'g'ri qo'llanilishini nazorat qilish mexanizmi ham samarali ishlashi kerak. Xorijiy davlatlarda tabiiy monopoliyalar tariflarini tartibga solishning bir necha modellari shakllangan. Cost-of-Service Regulation modelida regulyator monopol subyektning asoslangan xarajatlarini aniqlaydi va tarif orqali ushbu xarajatlarni qoplash hamda ma'lum darajadagi daromad olish imkonini beradi¹⁰.

Ushbu modelning afzalligi tarifning iqtisodiy asoslanganligini ta'minlash bo'lsa-da, uning asosiy kamchiligi monopol subyektning xarajatlarni kamaytirishga yetarlicha rag'batlantirmasligidir. **Price Cap Regulation** modelida regulyator monopol subyekt uchun tarifning maksimal darajasini belgilaydi. Bunda monopol subyekt xarajatlarni kamaytirgan taqdirda, ma'lum muddat davomida ushbu samaradorlikdan foyda ko'rishi mumkin.

OECD materiallarida narx chegarasiga asoslangan tartibga solish monopol subyektning samaradorlikni oshirishga rag'batlantirishi mumkinligi qayd etiladi¹¹. **Incentive Regulation** modelida tariflarni tartibga solish monopol subyektning xarajatlarni kamaytirishi, xizmat sifatini oshirishi va investitsiyalarni amalga oshirishi bilan bog'lanadi. Paul Joskowning tadqiqotlarida elektr energiyasi, tabiiy gaz, telekommunikatsiya va temir yo'l kabi tarmoqlarda tabiiy monopoliya xususiyatiga ega infratuzilma segmentlarini tartibga solishda rag'batlantiruvchi mexanizmlardan foydalanish muhimligi ko'rsatiladi¹². Shundan kelib chiqib, O'zbekiston uchun ham faqat xarajatlarni qoplashga asoslangan tarif modelidan bosqichma-bosqich **samaradorlik va xizmat sifati ko'rsatkichlariga bog'langan tartibga solish modeliga o'tish** istiqbolli yo'nalish bo'lishi mumkin. O'zbekistondagi amaliyotni tahlil qilish natijasida tabiiy monopoliya tariflarini

¹⁰ OECD. *Competition and Regulation in the Water Sector*. Cost-of-service regulation modeli va uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.

¹¹ OECD. *Competition Law and Policy*. Narx chegarasi (price-cap) va rate-of-return tartibga solish modellarining xususiyatlari.

¹² Joskow P.L. *Incentive Regulation in Theory and Practice: Electricity Distribution and Transmission Networks*. University of Chicago Press, 2014.

tartibga solishda bir qator muammolarni ajratib ko'rsatish mumkin. Monopol subyektning xarajatlari tarifni shakllantirishning asosiy elementlaridan biri bo'lgani sababli, xarajatlarning haqiqiyliigi va iqtisodiy zaruratini aniqlash alohida ahamiyatga ega.

Shu nuqtayi nazardan, monopol subyekt tomonidan keltirilgan xarajatlarning barchasini avtomatik ravishda tarifga kiritish emas, balki ularning **zarurligi, oqilonaligi va samaradorligi** baholanishi kerak. Tarif oshirilishi iste'molchi uchun qo'shimcha moliyaviy yukni anglatadi. Shu sababli tarif oshirilgan hollarda monopol subyektning xizmat sifati, uzluksizlik, investitsiya va infratuzilmani modernizatsiya qilish bo'yicha majburiyatlari ham aniq belgilanishi maqsadga muvofiq. Agar tarif monopol subyektning barcha xarajatlarini qoplash tamoyiliga asoslangan bo'lsa, xarajatlarni qisqartirish uchun iqtisodiy rag'bat kamayishi mumkin. OECD ham cost-of-service modelida xarajatlarni kamaytirish uchun rag'bat nisbatan zaifligini ta'kidlaydi¹³. Shu sababli tariflarni tartibga solishda **samaradorlik ko'effitsientlari** yoki narx chegarasi kabi mexanizmlardan foydalanish masalasini o'rganish lozim. Tabiiy monopoliya xizmatlari ko'pincha elektr energiyasi, suv, gaz, transport va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega sohalarni qamrab oladi. Shu sababli tarif siyosatida iste'molchining manfaatlari alohida huquqiy mezon sifatida mustahkamlanishi kerak.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, tabiiy monopoliya subyektlari tovarlari va xizmatlari tariflarini tartibga solish tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchi taklif. Tariflarni shakllantirishda "asoslangan xarajatlar" tushunchasini yanada aniq huquqiy belgilash. Bunda tarifga kiritilishi mumkin bo'lgan xarajatlar bilan bir qatorda iqtisodiy jihatdan samarasiz yoki asossiz xarajatlarni tarif tarkibiga kiritmaslik mezonlari belgilanishi lozim.

¹³OECD. Cost-of-service regulation sharoitida xarajatlarni qisqartirish uchun rag'batning zaifligi haqidagi tahlil.

Ikkinchi taklif. Tariflarni belgilashda mustaqil audit mexanizmini kuchaytirish. Tabiiy monopoliya subyekting tarif bo'yicha taqdim etgan xarajatlari mustaqil auditorlik yoki iqtisodiy ekspertiza asosida tekshirilishi tarifning shaffofligini oshiradi.

Uchinchi taklif. Tarif miqdorini xizmat sifati ko'rsatkichlari bilan bog'lash. Masalan, elektr energiyasini yetkazib berishda uzilishlar, suv ta'minotida xizmat uzluksizligi yoki transport xizmatlarining sifat ko'rsatkichlari belgilangan darajaga yetkazilmagan taqdirda tarifni avtomatik ravishda oshirishga yo'l qo'ymaslik yoki kompensatsiya mexanizmini joriy etish mumkin.

Xulosa: Tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish raqobat mavjud bo'lmagan yoki cheklangan bozorlarda iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishning muhim vositasidir. Biroq tariflarni tartibga solishning maqsadi monopol subyektning xarajatlarini shunchaki qoplash bilan cheklanmasligi kerak. Zamonaviy yondashuvda tarif siyosati iqtisodiy asoslangan xarajatlar, maqbul daromadlilik, investitsiyalar, xizmat sifati, samaradorlik va iste'molchilar manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashi lozim. O'zbekiston amaliyoti tariflarni nazorat qilishning real zaruratini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida tariflarni shakllantirish jarayonini yanada shaffof qilish, monopol subyektlarning xarajatlarini mustaqil baholash, tariflarni xizmat sifati va investitsiya majburiyatlari bilan bog'lash hamda rag'batlantiruvchi tartibga solish mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. OECD. *Natural Monopoly and Entry*. OECD Competition Policy Roundtable, natural monopoly and economies of scale masalalariga bag'ishlangan material.
2. Joskow P.L. Regulation of Natural Monopoly // *Handbook of Law and Economics*. Vol. 2. 2007. P. 1227–1348.

3. OECD. *Competition and Regulation in the Water Sector*. OECD Journal of Competition Law and Policy. Tabiiy monopoliyalarda xarajatlar, tariflar va samaradorlikni tartibga solish masalalari.
4. O'sha manba. OECD materialida cost-of-service regulation modelida xarajatlarni kamaytirishga rag'batning zaifligi qayd etilgan.
5. O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi. **Tabiiy monopoliyalarni tartibga solish bo'limi.**
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 722-son qarori "Narxlari davlat tomonidan tartibga solinishi lozim bo'lgan tovarlar narxlarining (tariflarining) shakllanishi hamda qo'llanilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
7. O'sha manba. Narx (tarif) ishlab chiqarish va davriy xarajatlar, soliqlar va boshqa to'lovlar bo'yicha xarajatlar hamda sof foyda summasi asosida shakllantirilishi belgilangan.
8. O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi. "Tartibga solinadigan narx (tarif)lar va tovar (ish, xizmat)larni bahosini tahlil va nazorat qilish".
9. O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi. "Narxlar va tariflarni nazorat qilish hamda tabiiy monopoliyalarni tartibga solish sohasida amalga oshirilgan ishlar".
10. OECD. *Competition and Regulation in the Water Sector*. Cost-of-service regulation modeli va uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.
11. OECD. *Competition Law and Policy*. Narx chegarasi (price-cap) va rate-of-return tartibga solish modellarining xususiyatlari.
12. Joskow P.L. *Incentive Regulation in Theory and Practice: Electricity Distribution and Transmission Networks*. University of Chicago Press, 2014.
13. OECD. Cost-of-service regulation sharoitida xarajatlarni qisqartirish uchun rag'batning zaifligi haqidagi tahlil.